

# **SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANINING TABIIY FLORASIDA *SALVIA* L. TURKUMI TURLARINING TARQALISHI**

**Qarabayeva Dिल्фуза Jo'rayevna - Termiz davlat universiteti Botanika  
kafedrasi katta o'qituvchisi**

**To'yev Qutlimurod Hikmatillo o'g'li - Termiz davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Maqolada Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida tarqalgan *Salvia* L. turkumiga mansub o'simliklarning bioekologik xususiyatlari va geografik tarqalishi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududda 9 ta *Salvia* turi aniqlandi. Ushbu turlarning tarqalishi, o'sish sharoitlari, fenologik rivojlanishi va ekologik talablari o'rganildi. Tadqiqot natijalari hudud bioxilma-xilligini saqlash, dorivor o'simliklar resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** *Salvia* L., G'ulomg'oya, bioekologiya, geografik tarqalish, Sherobod tumani, dorivor o'simliklar.

**Аннотация:** В статье анализируются биоэкологические характеристики и географическое распространение растений рода *Salvia* L., произрастающих на территории Шерабадского района Сурхандарьинской области. В ходе исследования в регионе было выявлено 9 видов *Salvia*. Изучены распространение, условия произрастания, фенологическое развитие и экологические требования этих видов. Результаты исследования создают научную основу для сохранения биоразнообразия региона, защиты ресурсов лекарственных растений и разработки методов их рационального использования.

## **Distribution of Species of the Genus *Salvia* L. in the Natural Flora of Sherobod District, Surkhandarya Region**

**Karabayeva Dिल्фуза Jo'rayevna — Senior Lecturer, Department of Botany,  
Termez State University**

**To'yev Qutlimurod Hikmatillo o'g'li — Student, Termez State University**

**Ключевые слова:** *Salvia* L., Гуломгоя, биоэкология, географическое распространение, Шерабадский район, лекарственные растения.

**Annotation:** The article analyzes the bioecological characteristics and geographical distribution of plants belonging to the genus *Salvia* L., distributed in the territory of Sherabad district of Surkhandarya region. During the study, 9 species of *Salvia* were identified in the region. The distribution, growth conditions, phenological development and ecological requirements of these species were studied. The results of the study create a scientific basis for preserving the biodiversity of the region, protecting medicinal plant resources and developing ways to use them rationally.

**Keywords:** *Salvia* L, Gulomgoya, bioecology, geographical distribution, Sherabad district, medicinal plants.

Har qanday mintaqaning tabiiy boyligi va ekologik barqarorligini baholashda uning o'simliklar olami, xususan dorivor turlar xilma-xilligi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani – Ko'hitang tizmasining sharqiy nishabida, 3137 m gacha bo'lgan balandliklarda joylashgan, shimol, sharq va janubdan aniq tabiiy chegaralar (suv havzasi, qishloqlar, kon) bilan ajralgan muhim biogeografik hududdir [6]. Bunday izolyatsiya va murakkab orografik sharoitlar endemik va noyob turlarning, shu jumladan qadrdan dorivor o'simliklarning rivojlanishiga imkon yaratadi. Hudud florasining o'rganilganlik darajasi haqida gap ketganda, Nevskiy [3], Tojibaev [4], Xasanov [5], Ibragimov [6] va Turginov [7] kabi olimlarning qimmatli ishlariga qaramay, ma'lumotlar to'plami parchalangan va izlanishlar ma'lum bir lokalliklar bilan cheklanganligini tan olish lozim. Bu holat, ilmiy asosda boshqariladigan tabiatni muhofaza qilish, barqaror foydalanish va farmatsevtika sanoati uchun xomashyo bazasini kengaytirish kabi zamonaviy talablarni qondirishga to'sqinlik qiladi. Aynan shu muammo doirasida *Salvia* L. turkumining o'рни alohida e'tiborga molikdir, chunki bu turkum nafaqat Lamiaceae oilasining turli jihatdan eng boy vakili, balki butun dunyo bo'yicha an'anaviy va zamonaviy tibbiyotda eng ko'p qo'llaniladigan dorivor o'simliklar qatoriga kiradi.

Sherobod tumani hududi bo'yicha amalga oshirilgan so'nggi tahliylar va TASH gerbariy fondidagi ma'lumotlar ushbu mintaqada *Salvia* L.ning 9 ta turi (*S. bucharica*, *S. lilacinocaerulea*, *S. macrosiphon*, *S. serawschanica*, *S. spinosa*, *S. virgata*, *S. ariana*, *S. sclarea*, *S. scrophulariifolia*) mavjudligini aniq ko'rsatdi. Biroq, bu turlarning mintaqaviy florasini shakllantirishdagi o'rni, ularning o'sish sharoitlari, populyatsion tuzilishi va tarqalishining ekologik qonuniyatlari o'rganilmagan. Demak, mazkur tadqiqotning maqsadi Sherobod tumani hududida tarqalgan *Salvia* L. turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari va geografik tarqalishini o'rganish, ularning mahalliy o'simlik qoplamidagi o'rnini aniqlash va ularni muhofaza qilish bo'yicha asosli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.


***Salvia spinosa* L. – Tikanli marmarak.** Balandligi 20-60 sm bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Poyasi to'g'ri, keng segmentli, deyarli ko'p shoxlari tarmoqlanib ketgan. Pastki qismida tuklar va bezlar mavjud. Asosiy barglar tuxumsimon yoki keng ellipssimon shaklda bo'lib, uzunligi 6–16 sm, eni 2,5–11 sm. Barglar chetida tishlar mavjud. Pastki barglar kichikroq va kamroq tuklangan. To'pgul shoxlari keng piramidal shaklida, 5–7 soxta halqasimon va 6 gulli gulbandlardan tashkil topgan. Kosachasi konussimon, uzunligi 15–20 mm. Gultoqi oq, uzunligi 2–2,5 sm, yuqori lab biroz egilgan, pastki lab esa cho'zinchoq va tishli. Yong'oqlar trigonal shaklida, uzunligi 2,5 mm, yashil-kulrang. May oyida gullaydi, iyun oyida meva beradi. 800-1000 m balandlikdagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli tog' yon bag'irlarida o'sadi. Sharqiy O'rta Yer dengizi, Eron, Misr, O'rta Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston)da tarqalgan.

***Salvia ariana* Hedge. – Ariya marmaragi.** Balandligi 30 sm gacha bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Poyasi tekis, o'rtacha 15–40 sm uzunlikda bo'lib, uzun bo'lmagan, tuklar bilan qoplangan. Barglari asosan cho'zinchoq, ovalsimon shaklda, 3–12,5 sm uzunlikda va 2–7 sm kenglikda, zich tuklar bilan qoplangan. Gulbarglar pushti-binafsharang, membranali, keng ovalsimon shaklda, uzunligi 1,5–2,2 sm va kengligi 1,4–2,7 sm. Kosacha naysimon shaklda, uzunligi 18–22 mm. Gultojbarg pushti yoki och binafsharang, uzunligi 24–30 mm, yuqori labi egilgan,

biroz o‘roqsimon. Urug’lar trigonal shaklda, silliq, uzunligi 3,5 mm va kengligi 2,5 mm. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida meva beradi. 500-2900 m balandlikdagi qoyali, shag’alli tog’ yon bag’irlarida, qoyalarda, ohaktoshli joylarda o’sadi. Afg’oniston, O’rta Osiyo (Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston)da keng tarqalgan.

***Salvia sclarea* L. – Muskat marmaragi.** Bo‘yi 20-120 sm balandlikda bo‘lgan ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi to‘g’ri, oddiy, eng pastki bo‘g’imlar zich, qalin, ko‘p tuklar bilan qoplangan, tepasida esa uzun poyali bezlar mavjud. Pastki va o‘rta poya barglari tuxumsimon yoki tuxumsimon-cho‘zinchoq, yuraksimon yoki o‘tmas, chetlari tishli, qirralari bo‘ylab qalin tuklar bilan qoplangan.

***Salvia scrophulariifolia* Bunge. – Muxallisbargli marmaragi.** Bo‘yi 1 metrgacha yetuvchi yarim buta. Barglari tuxumsimon shaklda, uzunligi 4–7 sm, eni 1,4–3,5 sm, chetlari tishsimon. Gullari ko‘plab bo‘lib, deyarli o‘simtasimon yoki 1 mm gacha uzunlikdagi tukli gulbandlarda joylashgan. Gullash davrida gullar nisbatan cho‘kib turadi. Kosacha naysimon-qo‘ng’iroqsimon, uzunligi 5–6 (7) mm, binafsha rangli, zich tuklar bilan qoplangan. Yuqori lab uzunligi 1,3 mm, eni 2,5–3 mm. Pastki lab uzunligi 1–1,3 mm, kengligi 2,4 mm. Gultoj binafsha yoki oq rangli, uzunligi 13–16 mm, kosachadan ikki baravar uzun. Mevasi – yong’oqcha, ovalsimon, uzunligi 2 mm, kengligi 1 mm, silliq, jigarrang. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda meva beradi. 800–2700 m balandlikdagi qumli, gilli va shag’alli cho‘l hududlari, qoldiq past tog’lar, toshli va mayda tuproqli tog’ yon bag’irlari hamda dalalarda uchraydi. O’rta Osiyoda (Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, O‘zbekiston)da tarqalgan endemik tur hisoblanadi.



**1-rasm.** Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida tarqalgan *Salvia* L. turkumining turlari

**A.** *S. virgata* Jacq.; **B.** *S. spinosa* L **C.** *S. ariana* Hedge **D.** *S. sclarea* **E.** *S. scrophulariifolia* Bunge.

***Salvia virgata* Jacq. – Momiq tukli marmarak.** Balandligi 50-100 sm bo‘lgan ko‘p yillik o‘simlik. To‘pgul zichroq, qisqa, tagida qalinlashgan va pastga yo‘naltirilgan tuklar bilan qoplangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Surxondaryo viloyati Sherobod tumani tabiiy florasida *Salvia* L. turkumiga mansub turlar dorivorlik xususiyatining yuqoriligi va ekologik moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ularning Sherobod tumani florasini shakllantirishdagi o‘rni muhim bo‘lib, bu turkumga mansub turlarni chuqur o‘rganish bioxilma-xillikni saqlash va dorivor resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Ayniqsa, *Salvia* turkumi turlarining tuman hududidagi populyatsiyalarining o‘rganilishi ularning genofondini saqlash, tabiatni muhofaza qilish va ilmiy-amaliy loyihalarni yo‘lga qo‘yish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari *Salvia* turkumiga mansub turlarni seleksiya qilish, dorivor xomashyo sifatida yetishtirish va farmatsevtika sanoatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Определитель растений Средней Азии. Т.5. Ташкент Фан, 1974.
2. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132.

3. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. – С. 167-168.
4. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J The effect of a biostimulator on the growth, development and yie ld of oily sunflower /“International Journal on Integrated Education” 2020. 157-160
5. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J. Effect of biostimulator on the vegetation period of oily sunflower / «International journal for innovative engineering and management research» 2020. 122-125.